

MATN TAHRIRI VA KORREKTURA BELGILARI

Adurahmatova Marjona Zokir qizi

*Termiz Davlat Universiteti O'zbek filalogiyasi Fakulteti Amaliy filalogiya ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Bugungi kunda deyarli har soha tahrirga muhtoj deb topilyapti. Zero, tahrir jaroyinida ko'plab xatoliklarga tuzatishlar kiritilyapti. Bugungi kun amaliyotida bunday tuzatishlarni amalga oshirish bo'yicha ikki fikrni uchratish mumkin. Birinchisi, tuzatishlarni kiritishni cheklamasluk, ikkinchisi esa cheklash – chegaralash. Har ikki fikr tarafdorlari o'zlari haq ekanliklarini “kuchli” dalillar bilan tasdiqlaydilar ham. Lekin ko'p yillik tajriba shuningdek, bugungi kun iqtisodiyoti shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi har ikki fikr maqbul emas, Agar korrektura nusxada ko'plab tuzatishlar qilishga to'g'ri kelsa, bu muallif, musahhah va muharrirning kamchiligi, malakasizligi oqibati hisoblanadi.

Kalit So'z: Korrektura, matn mazmuni, bosmaxona korrekturasi, nashriyot korrekturasi, reproduksiya bosma qolipi korrekturasi, granka, bosh varag'i, vyorska, bosma unsurlar o'rnini almashtirish, I.R. Galpern.

Matn ustida ishlash ma'sulyatli jarayon bo'lib, tahrir qiluvchidan ham o'ziga nisbatan jiddiy munosabatni talab qiladi. O'quvchilarning matn tahriri bilan shug'ullanishi esa ularga o'rgangan til bilimlarini mustahkamlashga, undan foydalanishda shu paytga qadar yo'l qo'yib kelayotgan kamchiliklarni tuzatib olishga, binobarin, o'z nutqining uslubiy jihatdan takomillashib borishiga ko'maklashadi.

Matn (lotincha: textus – mato; birikma) - ma'lum moddiy tashuviga bog'langan inson fikri; belgilarning umumiy izchil va to'liq ketma – ketligi.

“Matn” tushunchasining ikkita asosiy talqini mavjud: immanent (kengaytirilgan, falsafiy qarashlarga yo'g'irilgan) va reprezentiv (asosan, xususiy munosabat aks etgan). Immanent yondashuv matnda voqelikka xolis munosabat bildirib, uning ichki tuzilishini uchinchi shaxs tomonidan yoritishga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Reprezentativ yondashuv esa, matnni tashqi voqelik haqidagi ma'lumotni taqdim etishning maxsus shakli sifatida ko'rib chiqishni anglatadi.

Korrektura (lotincha .correctura – to'g'irlash, yaxshilash) – bosmaxonada yoki boshqa usullar bilan ko'paytirish uchun tayyorlangan matn va grafik materialdagi xato va kamchiliklarni tuzatish jarayoni. Korrektura uchun terilgan harflardan yoki bosma qolipdan ottisk (mas, vyorska, granka) olinadi. Bu ottisk asl nusxa (orginal) ga solishtirib o'qiladi va yo'l qo'yilgan xatolar standartdagi korrektura belgilaridan foydalanib ko'rsatiladi (rasmga q.) va shunga ko'ra operator (harf teruvchi) xatolarni tuzatadi. Korrektura 4 turga bo'linadi. 1) Bosmaxona korrekturasi 2) Nashriyot korrekturasi 3) orginal maket asosida chop qilinadigan nashr korrekturasi 4) Reproduksiya bosma qolip korrekturasi.

Bosmaxona korrekturasi va original maket asosida nashr korrekturasida harf terish barcha jarayonlaridagi xatolar tuzatiladi .Nashriyot korrekturasi muallif , muharrir va texnik muharrir tuzatishlaridan iborat .Repraduksiya bosma qolipli korrekturasida bir yoki ko'p bo'yoqli namuna otiskiolinib , asl nusxa (mas, muzeydagi kartina va boshqalar)bilan solishtiriladi va tuzatishlar (maxsus belgilar) ottisk chekasida ko'rsatiladi .

Noshirlik amaliyotida bosmaxona usulida ko'paytirish uchun tayyorlangan materialning imloviy ,uslubiy xatolari va texnik nuxsonlari tuzatish uchun tayyorlangan nusxa korrekturasi deyiladi .Korrekturadan maqsad – bosilgan matnni asl nusxaga to'la mosligini hamda tahrirning badiiy –texnik talab darajasida bo'lishini ta/minlashdir.Bosma shakl suratini nazorat qilish korrektura matnlari yordamida amalga oshiriladi va ularga tegishli tuzatishlar kiritiladi .Tahrir usuli asosiy e'tiborni matn talqin (variant) larini qiyoslashga asosiy e'tiborni qaratadi . Bunda, ya'ni qiyoslash jarayonida ,tabiiyki, tuzatishlar kiritiladi , natijada matnning ikki talqini yuzaga keladi :birinchisi , muvaffaqiyatsiz chiqqani , ikkinchisi , muvaffaqiyatlisi.

Korrektura nusxalarga tuzatishlar ma'lum shartli belgilar yordamida kiritiladi.Tuzatish belgilarini besh turga ajratish mumkin .

- 1.Almashtirish ,olib tashlash , kiritish
- 2.Bo'sh oraliqni o'zgartirish belgilari
- 3.Bosma unsurlar o'rnini almashtirish
- 4.Xat boshi,ajratib ko'rsatish belgillari
- 5.Bosish va terishdagi texnikaviy xatolarni ko'rsatish belgilari /

Korrektura nusxalarni tekshirishda muharrir asarni yana bir boshdan sinchiklab, tekshirib chiqishi shart , shu bilan birga musahhihlik tuzatishlarini ham ko'zdan kechiradi . Bundan tashqari u tasvirlar, jadvallarni umuman, nashr shaklini , matbaa ijrosini baholaydi. Xullas, barcha muammolarni - musahhihlar , texnik muharrirlar , rassomlar , dizaynerlar va boshalar qo'ygan savollarni hal etadi .

Korrektura nuzxaga kiritilgan tuzatishlarni ikki turga ajratish mumkin : nashriyot tuzatishlari va muallif tuzatishlari .

Noshirlik tuzatishlarini kiritish o'ta zarur bo'lsa muharrir bunday paytda satrlar surilib boshqa bet , boshqa taboqqa o'tib ketmasligini ta' minlovchi imloniyatlardan unumli foydalanishi lozim .Bunday paytda u satrlar qismlariga bo'shliqlarni toraytirish yoki kengaytirish , xatboshidan oldingi satrdan qolgan bo'sh o'rin , sarlavhaga ajratilgan joydan foydalanish shunday imkoniyat hisoblanadi . Muharrir korekturasi o'qish jarayonida alohida e'tiborni asarning muqovasiga , bosh varag'I sarlavhalari (mundarejasi) , annotatsiyasi , izoh va ilovalariga qaratiladi .Xullas , korrektura o'qish – muharrirning muhim vazifasi sanaladi .Mazkur bosqichda muharrir yetakchi maqomini saqlagan holda muayyan kitobni yaratishda qatnashuvchi nashriyot barcha xodimlarning faoliyatini uyg'unlashtiradi .

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish joizli, matnni idrok etish matn lingvistikasi va psixolingvistika doirasida o'rganilladi.I.R. Golperin matn xususiyatlari haqida to'xtalib

o'tar ekan , unga quydagicha ta'rif beradi : " matn bu yozma hujjat shaklida obyektivlashtirilgan , turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog'lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan , axloqiy xarakter , pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma'lum bir xususiyatga ega bo'lgan yozma xabardir .

Matnning semantik yaxlitligi mavjud voqelikdagi bog'lanish va bog'liqliklar (ijtimoiy hodisalar , tabiat hodisalari, inson, uning tashqi ko'rinishi va ichki dunyosi , jonsiz tabiat obyektlari va boshqalar) ni aks ettiradi .

Nutq predmetining birligi gapning mavzusidir . Mavzu esa matnning semantik o'zagi uning ixchamlashtirilgan va umumlashtirilgan mazmunidir .

"matn mazmuni " tushunchasi nutqning axborot mazmuni kategoriyasi bilan bog'liq jarayon bo'lib , faqat matnga xosdir . U o'quvchiga hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni , ularning barcha sohalaridagi ahamiyatini muallifning individual munosabati orqali xabardor qiladi , unga semantik yaxlitlik beradi.

Katta matnda yetakchi mavzu bir qator kichik tarkibiy mavzularga , kichik mavzular esa o'z navbatida paragraflar (mikro – mavzular) ga bo'linadi.

Matnda bayon qilinayotgan fikrning to'liqligi matnning semantik yaxlitligi bilan bog'liq bo'lib , to'liq tugallangan , yaxlit tugal mazmunga ega matn mazmuni to'liq aks ettiruvchi sarlovhani tanlash orqali amalga oshiriladi .

Shu tariqa matnning semantik yaxlitligidan uning quyidagi xususiyatlari kelib chiqadi :

Matn – bu ma'lum bir mavzudagi bayonot ;

Matn so'zlovchining niyatini ,asosiy g'oyasini ifodalab beradi ;

Har qanday hajmdagi matn nisbatan avtanom (to'liq) bayondir ;

Matndagi gaplar mantiqiy jihatdan bog'langan bo'ladi ;

Matn uchun uning mazmuniga mos sarlavha tanlash mumkin ;

To'liq matn odatda boshlanish va yakunga eha bo'ladi .

FOYDALANILGAN MANBALAR:

UzPedia.<https://uzpedia.uz> .sayti

Wikipedia .<https://uz.m.wikipedia>.

t. Z.Toxirov "Adabiy tahrir " . Tosh.2012 .